

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Ayollar uchun oliy ta'limga teng huquqli kirish va ishtirok etish siyosati

1. Kirish

Ushbu hujjat Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining (*JIDU*) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi [Qonuni](#) hamda ta'lim sohasiga doir amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq oliy ta'lim sohasida teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi va e'tirof etadi. Universitet har bir shaxsga jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va maqomidan qat'i nazar ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. Teng imkoniyatlar prinsipi shuningdek, o'qishga qabul qilish yuzasidan ariza topshirish, o'qishga qabul qilish hamda ta'lim, ilmiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish jarayonlariga nisbatan tatbiq etiladi.

2. Qabul qilish bosqichlari

Qabul jarayoni quyidagilardan iborat:

- konsultatsiya va kasbga yo'naltirish yuzasidan maslahatlar;
- ariza topshirish;
- test sinovlaridan o'tish;
- to'plangan ballar asosida universitet va ta'lim yo'nalishini tanlash;
- natijalarni e'lon qilish va tanlov asosida joylarni taqsimlash;
- Universitet Qabul komissiyasi tomonidan test sinovidan muvoffiqiyatli o'tgan talabalarinig hujjatlarini rasmiylashtirish.

3. Ariza topshirish va ro'yxatdan o'tish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga hujjatlarni qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi [Qaroriga](#) muvofiq, bakalavriat va magistratura dasturlariga ariza topshirish faqat [Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali](#) orqali onlayn tarzda amalga oshiriladi.

Tizim imtiyozga ega bo'lgan toifalarni, shu jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni avtomatik ravishda aniqlaydi. Universitetlar, jumladan JIDU, arizalarni bevosita qabul qilmaydi. Abituriyentlar

markazlashgan [test sinovlari](#)da qatnashib, natijalarga ko‘ra [mustaqil ravishda](#) universitetni tanlaydilar.

Barcha bosqichlar shaffoflik va tenglik prinsipi asosida amalga oshiriladi. Ayollar barcha abituriyentlar va magistrantlar bilan teng huquqda ishtirok etadilar.

4. Ayollar uchun maxsus imtiyozlar va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, abituriyent qizlarga va talaba ayollarga quyidagi davlat qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etiladi:

- kunduzgi ta’lim shaklida o‘qiyotgan ayollar uchun kontrakt to‘lovini qoplash maqsadida 7 yil muddatga [foizsiz ta’lim kreditlari](#);
- davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha ayollar uchun [kontrakt summasini qaytarish shartisiz](#) to‘lab berish;
- doktorantura bosqichi va xorijiy universitetlarda o‘qish uchun [maqsadli kvotalar](#) va grant dasturlari;
- [ijtimoiy himoyaga muhtoj toifadagi](#) ayollar (*yolg‘izlar, yetimlar, daromadi past oilalardan chiqqanlar*) uchun alohida imtiyozlar.

5. Ayollarning ta’lim va ilmiy hayotdagi ishtiroki

JIDUda tahsil olayotgan ayollar quyidagi yo‘nalishlarda faol ishtirok etadilar:

- ma’ruza, seminar, ilmiy tadqiqot va loyihalarda;
- amaliyot, akademik almashinuv dasturlari, konferensiyalar va ilmiy nashrlarda;
- talabalar o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va ilmiy to‘garaklarda;
- akademik mentorlik va kasbiy yo‘naltirish dasturlarida.

Universitet ayollar uchun hech qanday kamsitishlarsiz inklyuziv va xavfsiz o‘quv muhitini kafolatlaydi.

6. Amalga oshirish mehanizmi va muvofiqlashtirish

Ushbu siyosatning amalga oshirilishi quyidagi bo'linmalar tomonidan nazorat qilinadi:

- talabalarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish bo'limi;
- xalqaro akademik hamkorlik bo'limi;
- o'quv va pedagogik ishlari bo'yicha bo'lim;
- JIDU huzuridagi Ayollar maslahat kengashi.

Universitet har yili tahliliy hisobot tayyorlaydi va zarur hollarda milliy ta'lim organlariga ma'lumot taqdim etadi.

6. Yakuniy qoidalar

JIDU ayollar uchun oliy ta'limning barcha bosqichlarida haqiqiy va teng huquqli kirishni ta'minlash majburiyatini tasdiqlaydi. Mamlakatda joriy etilgan davlat qo'llab-quvvatlash choralarini hisobga olgan holda, universitet ochiq va inklyuziv muhit yaratadi, bunda ayollar akademik hayotda to'laqonli ishtirokchilar sifatida e'tirof etiladi.